

TA'LIMDAGI ISLOHOTLAR – MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH GAROVI

MIRZAYEV Ikrom Boboqulovich

Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi



<https://doi.org/10.24412/2181-2993-2023-3-115-122>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'limdagi islohotlar – malakali kadrlar tayyorlash garovi va malakali kadrlar tayyorlash maqsadida amaliy mashg'ulot darslarini o'tkazishda zamonaviy ta'limning innovatsion interaktiv usullarni qo'llash masalalari xususida mulohaza yuritilgan, hamda ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlik vazifalari ko'rsatib o'tilgan

Kalit so'zlar. *Xalqaro hamkorlik, fan, ta'lim, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta'lim sohasidagi islohotlar.*

ABSTRACT

In this article, the reforms in education - the guarantee of training qualified personnel and the issues of using innovative interactive methods of modern education in conducting practical training classes for the purpose of training qualified personnel are considered, and in the process of education, the teacher and tasks of mutual cooperation between students are shown

Key words. *International cooperation, science, education, national personnel training program, reforms in the field of education.*

KIRISH (Introduction)

Mustaqil O'zbekiston davlatining paydo bo'lishi xalqimizning tarixiy g'alabasidir. O'tgan 32 yil mobaynida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimiz hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida ulkan ishlar amalga oshirilyapti. 32 yil tarix uchun juda qisqa bir fursat. Lekin o'zining bunyodkorlik ko'lami, mohiyati va ahamiyati bilan o'tgan 32 yillik davr mamlakatimiz tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan tom ma'nodagi buyuk bir davr bo'ldi. Yurtimiz istiqloli bizning oldimizda ulkan imkoniyatlar ochdi va xalqimiz uchun erkin va farovon hayot barpo etish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasidagi islohotlarni biz tabiiy ravishda 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bilan bog'liq holda tushunamiz. Lekin mazkur sohadagi dastlabki qadamlar, dastlabki harakatlar mustaqilligimizga qadar boshlangan edi. Shu sababli qisqa muddat tarixga murojaat qilishni lozim topdim. Bizga ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir

sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So‘nggi yillarda ta‘lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta‘lim tizimidagi islohotlar va amaliy chora-tadbirlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etilmoqda:

MUHOKAMA VA NATIJALAR (Discussion and results)

Mustaqil O‘zbekistonda ta‘lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. Bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e‘tiborning qadriga etishi va uni ob‘ektiv baholash, mustaqillikni zaruriyatini to‘g‘ri va haqqoniy anglashi hamda kelajakka ishonch xosil qilishi uchun ularda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, eng avvalo, ular ongiga mustaqillik, mustaqil davlat, mulkiy mustaqillik, adolat, an‘analar, umuminsoniy an‘analar, milliy an‘analar, Vatan, Vatan tuyg‘usi, Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, fidoiylik, insonparvarlik, milliylik, milliy ong, milliy o‘z-o‘zini anglash, qadriyatlar, milliy qadriyatlar, manfaat, milliy manfaatlar, milliy g‘urur, urf-odatlar va rasm-rusumlar, ma‘naviyat, milliy g‘oya va boshqa bir qator asosiy tushunchalarning mazmun – mohiyatini singdirish zarur. Shu o‘rinda, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Adolat, Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug‘” nomli asarida qayd etilgan yoshlar tafakkurini rivojlantirish borasidagi “Har bir insonning, ayniqsa, endigina qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o‘rtaga qo‘yilgan maqsadlarga erishish o‘zlariga bog‘liq ekanligini, ya‘ni bu narsa ularning sobitqadam g‘ayrat-shijoatiga, to‘la-to‘kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog‘liq ekanligini anglab etishlari kerak.

Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir”, degan fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir. Mustaqil O‘zbekistonda ta‘lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. Mazkur fikrga asoslanib aytishimiz mumkinki, mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy tushunchalarning mazmun – mohiyati va ahamiyatining asosli va aniq tarzda talabalarlarga yoritib berilishi ularda mamalakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning bugungi kunda ijobiy natijalari, yaratilayotgan yangiliklar va ularning turmush darajasining o‘zib borishi kabi yo‘nalishlarda tasavvur hosil qilish asosida dunyoqarashini o‘zgartiradi, shu bilan bir qatorda, talabalarda Vatanga muhabbat, e‘tiqod va sadoqat, davlat ramzlariga, umummilliy qadriyatlar va milliy urf-odatlarga hurmat, vatanparvarlik va insonparvarlik, kelajakka ishonch tuyg‘ularini shakllantiradi, muxtasar qilib aytganda, ularda mustaqillik tafakkurini

rivojlantiradi. Buni biz quyidagi asosiy tushunchalarning mazmun – mohiyati va ahamiyatining yoritilishida ko'rishimiz mumkin. Hayotda “mustaqillik” tushunchasi juda keng qo'llaniladi. Masalan, davlat mustaqilligi, mulkiy mustaqillik, shaxs mustaqilligi, fikrlashda mustaqillik, hayot kechirishda mustaqillik, ma'lum bir vazifani bajarishda mustaqillik, ta'lim olishda va o'rganishda mustaqillik (mustaqil ta'lim), tarbiyada mustaqillik (o'zini o'zi tarbiya) boshqaruvda mustaqillik kabi.

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. Bunday iboralarni yana davom ettirish mumkin bo'lsa-da, bularning barchasiga, ya'ni xalqning yashashi, ijod qilish, mehnat qilish, o'zligini anglashi, fikrlashi, tafakkuri va e'tiqodi kabi yo'nalishlarda erkin va mustaqil bo'lishiga shart-sharoitlar yaratib beruvchi mustaqillik, bu butun bir xalqning taqdiri bilan bog'liq bo'lgan mamlakat mustaqilligi bo'lib, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati to'g'risida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin. Mustaqillik degani shuki, biz, asrlar osha birovlarining og'ziga qarab yashagan xalq, nihoyat, o'z taqdirimizni, hayotimizni, kelajagimizni o'z qo'limizga oldik. Eng muqaddas vazifa shu buyuk ne'matni qo'ldan bermaslik. Mustaqillik bizni mustabit va mafkuralashgan tuzum kishanlaridan ozod qildi, o'zbek xalqiga o'z yurtida boshini baland ko'tarib yurish, o'z madaniyati va an'analarini, qadr-qimmatini, dini va e'tiqodini, ona tili va ma'naviyatini qayta tiklash imkonini berdi. Biz uchun mustaqillik – o'z erkinligingizni anglashgina emas, balki avvalo, o'z hayotimizni o'z irodamiz bilan va milliy manfaatlarimizni ko'zlagan holda tashkil etish, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish huquqidir. Mustaqillik – qadriyatlarni tiklash, rivojlantirishning asosi. Mustaqillik – xalqimizning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy qadriyatlarini, avvalo, ajdodlarimizning tarixiga, ilmu faniga, falsafasiga, madaniyatiga, ma'rifatiga, tiliga doir noyob merosni tiklash, avaylab – asrash, rivojlantirish asosidir. Mustaqillik – xalq, Vatan, har bir yigit va qizning, har bir fuqaroning jismoniy – ruhiy kamol topishining negizidir. Hur o'lkamizning keng bag'rida jismoniy – ma'naviy poklanish yuz bermoqda. Zero, jismoniy – ma'anaviy poklik insonni barcha jonzotlardan ajratib turuvchi ulug'vor sifat hisoblanadi.

Mustaqillik iqtisod bilan ma'rifatni ulug'lashtiradi, insonparvarlikni, insoning jismoniy va ma'naviy sog'lomligining ustuvorligining, komil insonning shakllanishi, muqarrar mag'rur yashashini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratib berdi. Mustaqillik zaminida xalqimizning milliy ongi, g'ururi, tafakkuri-yu shuuri uyg'onib, jo'sh urib turuvchi qudratli kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Mehnat ahlining billur qudratli kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Mehnat ahlining billur aqli va odobi rivojlanib, yashnab farovon hayot qurishga yo'naltirilmoqda. “Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz

adolat, tenglik, ahil qo'shnicilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab – asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat vijdon erkinligi va har bir kishining kamol topishiga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir"bo'lib, buning uchun, eng avvalo, u yashayotgan yurt, ya'ni davlat mustaqilligi muhim ahamiyat kasb etishini anglashimiz mumkin.

Demak, talabalarga mamlakat mustaqilligi, uning mazmun – mohiyati va zaruriyati to'g'risida tushunchalar berishda "mustaqil davlat" tushunchasi mazmun-mohiyatining asoslab berilishi o'ziga xos ahamiyatga egadir. Talabalarga mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini tushuntirishda mustaqil davlat (arabcha "mustaqil" – qaram emas, erkin) – davlatning asosiy shakli ekanligi hamda davlat tushunchasining o'zi mustaqillikni anglatishi, eng muhim belgilari, ya'ni shaxslarni fuqarolikka qabul qilish va ularni fuqarolikdan mahrum etish, xorijiy davlatlar bilan mustaqil ravishda aloqalar o'rnatish yoki bu aloqalarni uzish, o'z xazinasi va pul birligi – milliy valyutasini joriy qilish, o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini o'zi belgilay olish, o'z ma'muriy tizimini o'zi belgilash, so'rov (referendum) e'lon qilish hamda hokimiyat va boshqarish organlari tartibini belgilash, sud tizimi, sud tuzilishi va ishlarini o'zi yuritish huquqlariga, shuningdek, davlat o'z asosiy qonuni – konstitutsiyasiga; jinoyat va fuqarolik, oila va nikoh, uy-joy, er, suv to'g'risidagi qonunlarga; o'z davlat ramzlari: davlat gerbi, davlat bayrog'i, davlat madhiyasi va o'z poytaxtiga; o'zining asosiy tili (davlat tili)ga (bu til maxsus qonun asosida yoki tarixiy an'ana bo'yicha aniqlanishi); o'z davlat byudjetiga, o'z mulkiga, moliya va soliq tizimiga; o'zining harbiy tuzilmasiga va milliy qo'shiniga; daxlsiz o'z hududiga va daxlsiz davlat chegarasiga ega ekanligi hamda davlat hokimiyati uch asosiy tarmoqqa: qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi xokimiyat va sud hokimiyatiga bo'linishi haqida ma'lumotlar berilishi zarur.

Talabalarga mustaqillikning va uning mazmun-mohiyatini tushuntirishda mulkiy mustaqillik tushunchasi bo'yicha ma'lumotlar berish ham o'ziga xos ahamiyatga molikdir. Mulkiy mustaqillik – kishilarda mulkka egalik qilish boshqarish, foyda olish va hokazo uchun beriladigan erkinlik, huquq. Demokratik huquqiy davlat fuqarolarning eng muhim huquqlaridan biri. "O'zbekistonning mulk to'g'risida"gi qonunida mulkiy huquqlarning barchasi ko'rsatilgan. Mazkur qonunning birinchi bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida mol-mulkning mavjud ekanligi va unga nisbatan egalik huquqining bo'lishi tan olinadi, har bir mulkdorning o'z mulkiga nisbatan huquqiga ega ekanligi inkor etilmaydi va u tegishli qonunlar orqali

himoya qilinadi. “Mulkdor boshqalarning emas, balki o’zining istagi, roziligi, moyilligi, xohishiga ko’ra, o’z molmulkgiga egalik qiladi”.

Mustaqillik tufayli mulkiy mustaqillik vujudga keldi, hayotimiz boyidi, xalqimizning turmush darajasi o’sdi, dunyoqarashi o’zgardi, o’zining mustaqil taraqqiyot yo’lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, yangilanib bormoqda. Davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko’proq adolat tamoyillariga asoslanmoqda. Inson, uning huquqiy va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida belgilandi. Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar va muassasalar vujudga kelishi, inson manfaatlariga e’tibor jahon huquqiy andozalari va milliy urfodatlarining uyg’unligida shakllanib borayotganligi mustaqil O’zbekistonda adolat qoidalari tantana qilayotganligi ifodalaydi, deb aytishimiz mumkin.

Mustaqillik tufayli adolat qaror topdi, adolat qoidalarining tantana qilayotganligini umummilliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy an’analarining tiklanganligida ham ko’rishimiz mumkin. Bularni qadrlash va asrash mustaqillikni mustahkamlash yo’nalishida qator vazifalarni belgilaydi. Nazarimizda, an’analar, umuminsoniy an’analar va milliy an’analar bo’yicha talabalarning tushunchalarini rivojlantirib borish mazkur vazifalardan biri hisoblanadi. Adabiyotlarda keltirilishicha, an’analar – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma’naviy faoliyat shakllarining kishilar o’rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o’tishi, ajdodlar hayoti va hususiyatlarining takrorlanish tarzi.

Vatanga muhabbat, oilaga sadoqat, ota-onaga izzat-hurmat, kattalarga, qariyalarga ehtirom kabi an’analar umuminsoniydir. Chunki ular har bir millatda, elatda va el-yurtda bor. Ularning namoyon bo’lishi esa, har bir xalqda turlicha. Bunday xilma-xillik xalqning, elning tarixi va hayotiy shart-sharoitlari bilan mushtarak. Milliy an’analar – millat hayotining turli sohalarida namoyon bo’ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddanavlodga o’tish hamda meros bo’lib qolish ko’rinishi. Milliy an’analar umuminsoniy an’analarining bir millat darajasida namoyon bo’lishidir. Ular orqali har bir millat bir davrdagi o’ziga xos xususiyat, hayot tarzi, madaniyati, fani, adabiyoti hamda boshqa sohalaridagi erishilgan natijalar va yutuqlarni boshqa davrda yashayotgan avlodlarga etkazadi.

Milliy an’analarda millatning betakrorligi, millat hayotining o’ziga xosligi, vorislikning muhim milliy jihatlari namoyon bo’ladi. Millatning har bir avlodi milliy an’analarini o’tmishdan kelajakka etkazib beruvchi insonlar ruhida tarbiyalanishi kerak. Millatning tanazzuli milliy an’analarining ham tanazzulidir.

Xalqimizning tarixiy qadriyatlaridan hisoblangan Navro'z bayramini milliy ana'analardan biri sifatida keltirishimiz mumkin. Navro'z (forschada "navro'z" – yangi kun ma'nosini anglatadi) – Turkiston, o'rta va yaqin Sharqda yashovchi o'zbek, ozarbayjon, tojik, hind, fors va boshqa xalqlarning qadimiy an'anaviy Yangi yil bayrami. Shamsiya hisobida yilning birinchi kuni bo'lib, bahorgi tun va kunning tengligiga, ya'ni 21-22 martga to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Navro'zni bayram qilib o'tkazish ahamoniylar davri (miloddan avvalgi VI-V asrlar)dan boshlangan. Mustaqillik sharofati bilan 1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi hamda 1 sentyabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami va dam olish kuni deb e'lon qilindi. Eng quvonarli joyi shundaki, Mustaqillik kuni xalqimizning eng katta bayramiga, ya'ni milliy an'anaviy bayramiga, milliy a'nanaviy bayramiga aylanib bormoqda.

XULOSA (Conclusion)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ildizi uzoq ana'analarga, qadriyatlarga borib bog'lanadigan asosiy tushunchalar talabalarda mustaqillik tarbiyasini amalga oshirishda, shuningdek, mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari jahonning yetakchi universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni amalga oshirmoqda hamda Yevropa Ittifoqi, Britaniya Kengashi, Germaniyaning akademiyalar bilan tajriba almashinuv xizmati, Gyote instituti, Xalqaro hamkorlik bo'yicha Germaniya jamiyati, xalqaro hamkorlik bo'yicha Koreya va Yaponiya agentliklari, ta'lim va ilmiy-texnikaviy loyihalarini joriy qilishda BMT, YUNESKO, Yevropa ta'lim fondi, OTB va boshqa tashkilotlarning rivojlantirish dasturlarida faol ishtirok etmoqda.

REFERENCES

1. Hoshimov K va boshqalar. Pedagogika tarixi //Pedagogika oliy o.,uv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun O.,quv qo'llanma. - Toshkent, O.,qtuvchi, 1996, - 301-bet.
2. Mahkamov U, Tillaboeva N, Tillaboeva SH. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: 2003 y
3. Ikrom Boboqulovich Mirzaev (2021). MILLIY MADANIYAT FALSAFASI. Academic research in educational sciences, 2 (12), 965-969.

4. Mirzaev Ikrom Boboqulovich O'zbekiston yosh avlodi tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni // Fan va ta'lim bugungi kun. 2019 yil, 4-son (39). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-natsionalnyh-tsennostey-v-vospitanii-molodogo-pokoleniya-uzbekistana> (kirish sanasi: 18.01.2023).
5. Mirzaev Ikrom Boboqulovich Zamonaviy madaniyat jarayonlarida milliy va umuminsoniy uyg'unlik // Ilmiy jurnal. 2020 yil. 3-son (48). URL: World scientific research journal www.wsrjournal.com Volume-12_Issue-1_February-2023 146 <https://cyberleninka.ru/article/n/garmoniya-natsionalnogoobschechelovecheskogo-v-protsessah-sovremennoy-kultury> (kirish sanasi: 18.01.2023).
6. Ikrom Boboqulovich Mirzaev, D. A. Abduhoshimov ZAMONAVIY KADROLAR TAYYORLASH TIZIMI VA MAQSADLARI // Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. 2022. #TSTU konferensiyasi 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zamnaviy-kadrlar-tayyorlashning-tizimli-va-masadli-zhi-atlari> (kirish sanasi: 18.01.2023).
7. Ikrom Boboqulovich Mirzaev GLOBALLASHUV DAVRIDAGI "SOXTA DINIY DUNYOQARASH" // Pedagogik fanlarda akademik tadqiqotlar. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/globallashuv-davridagi-sohta-diniy-dunyo-arash> (Kirish sanasi: 18.01.2023).
8. O'.Erniyozov, I.Merzayev, & M.Hasanov. (2022). SHAXSNI SHAKILLANTIRISHDA "OILA" VA "JAMIYATNING" AXAMIYATI . World Scientific Research Journal, 4(2), 96–101. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/1445>
9. Раматов, Ж. С., Эрниезов, У. К., Султанов, С. Ҳ., & Хасанов, М. Н. (2022). САНЪАТНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АХАМИЯТИ. World scientific research journal, 9(2), 65-70.
10. Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.
11. Mamanovich, R. K. (2021). Components of political culture in political processes. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 953-959.
12. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. *ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ*, 75(part 6), 28.
13. Расулов, Х. (2021). Ҳукуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. *Общество и инновации*, 2(10/S), 335-342.

14. Расулов, Х. М. (2020). Jamoatchilik nazorati va rahbar kadrlar faoliyati siyosiy-huquqiy madaniyat ifodasi sifatida. *Журнал Социальных Исследований*, 3(4).
15. Hakim, R. (2021). Political and Legal Culture-the Factors of Stability of the Political and Legal System. *Бюллетень науки и практики*, 7(3), 281-286.
16. Расулов, Х. М. (2022). МАЪНАВИЙ ТАРҒИБОТДА ИЛҒОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 818-826.
17. Расулов, Х. М. (2020). Шарқ ва ғарб: сиёсий ва ҳуқуқий маданият компонентлари уйғунлиги. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1№ 3).
18. Расулов, Х. (2022). Сиёсат–маданият, ҳодиса ва фан сифатида. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 691-702.
19. Mamanovich, R. H. (2021). Civil Society: Prosperities of Decentralization in Management. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 359-362.
20. Mamanovich, R. H. (2022). The mass media as a subject of political and legal propaganda. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(10), 122-128.
21. Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sulstonov, & Fayzulla Kushakov (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 591-597.
22. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. У., Султанов, С. Х., Муратова, Д. А., Хасанов, М. Н., & Эрнийёзов, У. К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ КИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ КАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲДЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 376-386.
23. Hasanov, M., & Tuhtaboev, E. (2021). THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENESSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS). *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(05), 1-6.
24. Ҳасанов, М. Н., Ҳафизов, Д. А., Тоиров, Р. Х., & Болтабоев, Х. Қ. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4 (3), 137–140.